

**BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING PAYDO
BO'LISHI VA UNI YO'Q QILISHNING PSIXOLOGIK
USULLARI**

O'rolov Lazizbek Kamol o'g'li

*Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o'quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: tajovuz, ruhiy holat, tushkunlik, psixik jarayonlar, zarar, g'azab, xulq-atvor, bosqinchi, zulm, haqorat, muloqot.

KIRISH

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan paydo bo'lishini aniqlangan. Nosog'lom oila muhiti bolaning agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishinig asosiy sababidir. Chunki ta'lim va tarbiya doimo oiladan boshlanadi. Oiladagi ota-onaning munosabatlari urush-janjallari orqali bolalarda qo'rquv shakllanadi. Bu qo'rquv tufayli u o'ziga nisbatan ishonchsizlik orttiradi, atrofdagilarga nisbatan qo'rquv orqali bola yolg'iz o'zi qolib ketadi, katta bo'lganda ham jamiyatda atrofdagilarga qo'shila olmaydi. Bolalardagi aggressiv xatti-harakatlar paydo bo'lmasligi uchun nosog'lom oila muhitini to'g'irlash lozim. Yuqorida biz faqat nosog'lom oila muhitidagi bitta holatni ya'ni oiladagi nosog'lom munosabatlar orqali bolada qanday agressiv xatti-harakatlar bo'lishi va kelajagidagi ta'sirini o'rganib chiqdik xolos. Bolada agressiv xatti-

harakatlarni oldini olish uchun ota-onalarga maslahatlar. Birinchidan oila muhitini to'g'irlash urush-janjallarni kamaytirish. Ikkinchidan ota-onaning farzandiga bo'lgan munosabatini, ishonchini oshirish, bolaga imkon yaratib berish. Uchinchidan ota-onalarga bolalari orqali o'zlarining bolalik damlarini eslatib, farzandidagi talab darajasining yuqoriligini, inijlik, sho'xliklarini qabul qilishni o'rgatish kerak.

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni korreksiyalash uchun

➤ Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun kelib chiqish sababini o'rganish.

➤ Har bir bola bilan individual psixolog-pedagog shug'ullanish.

➤ Bolaga ta'sir etadigan agressiv omillarni kamaytirish uni ko'rishiga yo'l qo'ymaslik.

➤ Psixologlarning yakka tartibda faqat bola bilan emas uziviy ravishda ota-ona tarbiyachilar bilan shug'ullanish.

➤ Agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun bolaga atrofdagi mo'jizalarni, ko'rsatish.

➤ Bolada muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

➤ Atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatlarni paydo qilish.

➤ Ota-onalariga nisbatan ishonch tuyg'usi yaxshi ko'rish sevilish tuyg'usini shakllantirish.

➤ Qiziqish qobiliyatlarini o'rganib chiqqan holda o'zi shug'ullanishni o'zi bajarishni istagan mashg'uloti uchun imkoniyat yaratib berish

➤ Bola kayfiyatini ko'taruvchi musiqaterapiyasi, izoterapiyalardan foydalanish, tavsiya etiladi.

Agressiv bolalarning ota-onalariga tavsiyalar

1. Farzandingiz bilan birga o'ynang

2. Farzandingizni kamsitmang yaxshi muomalada bo'ling

3. Farzandingizga haddan ziyod to'siqlar qo'ymang uni jismoniy jazolamang
4. Farzandingizni qo'rqitmang atrofdagilarga nisbatan qo'rquv paydo qilmang
5. Farzandingiz bilan o'rtangizda kelishmovchilik chiqqanda g'azabingizni jilovlab, aziyatni to'g'ri tushuntiring
6. Farzandingizga e'tiborli bo'ling atrofdagilarga nisbatan g'amxo'rlik qilishi uchun imkon yarating, farzandingizni yaxshi ko'rishingizni doimo eslating.
7. Farzandingizni eshiting, qiziqishlari va savollariga javob bering, eng asosiysi oiladagi agressiv munosabatlarni yakunlang.

Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o'quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Maktab bolalarida agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv

bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari — bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar.

Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi — oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi. Maktab o'quvchilari orasida agressiv hulq-atvorning bartaraf etishda, avvalo shu narsa ko'zga tashlanadiki har qanday holatda ham bolalarni be'etibor qoldirish kerak emas, ayniqsa maktab o'quvchilarini, o'smir yoshlarni, chunki ular huddi endi o'sib kelayotgan novda kabi. Uni qaysi tomonga shakllantirsa shunday shakllanib boradi.

XULOSA

O'quvchilarda agressiv hulq-atvorni yo'qotish yoki oldini olishdagi birinchi mexanizm bu ota-on va maktab va o'qituvchi orasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan aloqalar mexanizmidir. Bu mexanizm yo'lga qo'yilsa bolalar hech bir

vaqt o'zlari bee'tibor qolishmaydi. Keyingi mexanizm bu – sog'lom muhit mexanizmi. Bunda oiladagi muhit sog'lom bo'lishi kerak, bolalar bo'sh vaqtida nima bilan band, o'rtoqlari kim, vaqtini kim bilan nimlarga sarflayabdi, internetdan nimalar uchun foydalanyabdi kabi savollarga oilad faqatgina sog'lom muhit tarsi mavjud bo'lgandagina ota-onalarimiz javob topa olishadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra yana bir tendensiya ko'zga tashlanadiki, agressivligi yuqori bo'lgan o'smirlar ko'p hollarda ekstremal ravishda o'z-o'zini juda yuqori yoki juda past baholash xususiyatiga ega. Noagressiv bolalarga esa o'zini adekvat baholash xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // *Academic Research in Educational Sciences*, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
2. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
3. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili // *Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
4. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)* ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
5. Ziyo.net